

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARING KASBIY
QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH.**

Qurbanova Baxtixon Qo'chqarbayevna

FarDU pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori, professor

Xatamova Durdonaxon

FarDU magistranti

Annotatsiya: Maqolada talabalarning kasbiy qiziqishlarini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish g'oyalariga e'bor qaratilgan, yangi ta'lim metodlari orqali talabalarning kasbiy mahoratlarini rivjlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ta'lim tizimidagi yutuqlar, ta'lim standartlari monitoring qilingan.

Kalit so'zlar: jahon ta'limi, innovatsionfaoliyat, tajriba, tuzilma, mahorat, amaliyot.

Kirish

Yurtimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalgalashirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik faoliyatini rivojlanterish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iborat. Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur'atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi. Shu maqsadda butun ta'lim tizimini takomillashtirmoqda va o'z asarlarida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" ¹ deb ta'kidlab o'tmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Jahon ta'lim muassasalarida o'qishning yangi strategiyalariga tayyorlash, kasbiy qiziqishlarni rivojlanterish metodikasini takomillashtirishning innovatsion modellari amaliyotga tadbiq etilmoqda. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talabalar faoliyatini yangi mazmunda tashkil qilish usullarini yo'lga qo'yish talabalarni nafaqat nazariy, balki, amaliy bilimlari, intellektual- jismoniy kamolotini rivojlanterish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, talabalar innovatsion ta'lim faoliyatini

¹"Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent- "O'zbekiston"-2016

takomillashtirishda ularning fikrlashini va ijodkorligini oshirish, kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, metodik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan dasturni joriy etishga, har jahhada talabalarning qiziqishlarini inobatga olishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlarga nazar tashlasak, barcha imkoniyat va sharoitlar talabalarni zamonaviy kasb- hunarlarga yo'naltirishga qaratilmoqda. "Ta'lif sohasidagi navbatdagi muhim yo'nalish, bu- yoshlarning zamonaviy kasb- hunar egallashi uchun barcha zarur shart- sharoitlarni yaratishdan iborat" ² ustuvor vazifa etib belgilandi. Buning natijasida talabalarni kasb tanlashga yo'naltirishning pedagogik imkoniyatlari yanada ortdi.

Talabalarning kasbiy qiziqishlari rivojlantirish uchun barcha shart – sharoitlar yaratish, kasb- hunarga yo'naltirishga jalb etish, amaliy darslar va malakaviy amaliyot jarayonida tajriba orttirishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratilda. Daslarni amaliyot bilan uzviy bog'lash natijasida talabalar ni kasbga bo'lgan muhabbati yanada ortmoqda. Talabalarni kasbiy mahoratlarini shakllantirishning hozirgi va istiqboldagi ustuvor vazifasi rivojlangan davlatlar bilan tajriba almashish va kelajak hayotga tayyorlash. Innovatsion yondashuv asosida talabbalarni kasbiy mahoratini rivojlantirishning tayanch kompetensiyasi amaliyot va talabalarni qiziqishlarini mujassamlashtirgan holda darslarni tashkil etish va bu tizimni takomillashtirish yo'lida yangi texnologiyalarni ishla chiqishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Innovatsion yondashuv- bu ta'lif jarayonida yangiliklar, yangi texnologiyalar, metodlar va g'oyalarni qo'llash orqali o'quvchilarni yanada faol va ijodiy ishtirok etishga undaydigan yondashuvdir. Bu yondashuvlar ta'lif jarayonini interaktiv, qiziqarli va amaliy tajribaga asoslangan qilib o'zgartiradi.

Innovatsion yondashuv asosida oliy ta'lif talabalarining kasbga qiziqish jarayonini tor yo'nalishda ko'rib chiqish bilan cheklanibb qolmassdan, ularning butun hayotlari davomida tanlagan kasbi yo'lida o'zini o'zi takomillashtirishi, aniq maqsadlarni belgilab olishi va ularga erishish uchun bosqichma – bosqich rejalarini amalga oshirishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berish kerak.


Tahlillar va natijalar

Kasbiy qiziqish nafaqat kasbning individual xususiyatlari va sifatlarini hisobga olish, balki shaxsning shaxsiy fazilatlari hamda kasb talablaridagi o'zgarishlarni ham hisobga olinishi asoslanadi. Shunga asoslanib, kasb tanlash holatini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin: jamiyat ehtiyojlarining tuzilishi; ijtimoiy muhit; mazmunli va texnologik xususiyatlar majmui turli xil kasbiy faoliyat turlari hamda ularga nisbatan jamiyatda shakllangan baholash munosabatlari; kelajakni anglash darajasi; kasblar dunyosi hamda kadrlarga bo'lgan ehtiyojni ortishi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 22-dekabrdagi Murojatnomasi

Kasbiy qiziqishlarni rivojlantirish bevosita milliy hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lib, talabalarni zamonaviy kasblarga bo'lgan qiziqishlarini milliy qadryatlar bilan birgalikda chambarchars bog'lab darslarni tashkillash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birgalikda kasb-hunarga bo'lgan qiziqishni xalq hunarmandchiligini o'rganishning muhim ko'rinishlaridan hisoblangan to'garak mashg'ulotlari orqali tashkil etish, xalq hunarmandchiligini o'rganishning ahamiyati dastlabki hunar o'rganishni o'quvchilarga o'rgatish va moddiy-texnikaviy, xomashyo hamda o'quv-metodik ta'minotini yo'lga qo'yish bilan belgilangan.

Innovatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy qiziqishlarini oshirishda fanlarni integratsiya qilish va bu borada STEAM va SMART texnologiyalaridan foydalanish, kasbiy qiziqishlarini klasterli yondashuvini amalga oshirish mexanizmlari taqdim etilgan. Innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish doirasida auditoriya va auditoriyadan tashqari ta'lim turlarini integratsiyalash jarayoni kelajakdagi kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalarning turli xil faoliyat turlarini tashkil etishdan iborat. Kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishda STEAM va SMART texnologiyalaridan foydalanish natijasiga erishish orqali quyidagi darajalar kelib chiqadi:



Muhokama

Innovatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi va quyida keltirilgan strategiyalar ushbu maqsdlarga erishishda yordam berishi mumkin:

- Amaliy tajriba:** talabalarni real hayotdagi loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini taqdim etish. Bu, kasbiy ko'nikmalarni oshirish va qiziqishlarni aniqlashga yordam beradi.

2. Mentorlik dasturi: tajribali mutaxassislar bilan mentorlik aloqalarini o'rnatish, kasb haqida chuqurroq ma'lumot olish va o'z yo'nalishlarini belgilashda yordam beradi.

3. Interaktiv ta'lim usullari: o'yinlar, simulyatsiyalar va guruhiy muhokama kabi interaktiv usullar orqali o'quv jarayonini jonlantirish va bu orqali ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Talabalarni kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning modeli mavjud bo'lib, quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

Kreativ: ijodkorlikka yo'naltirish; intelektual tayyorlash.

Kognetiv: shaxsiy va kasbiy potensiallarni amalga oshirish; kasbiy qiziqishlarni diagnostika korrektsiyalash qabul qilingan axborotlarni tahrirlash.

Refleksiv: shaxsiy fikr va kechinmalarni tahlil qilish va mulohaza yuritish.

Talabalrani ijodiy fikrlashini rivojlantirish yo'llaridan biri- darslarda texnikaviy konstruksiyalash va modellashtirish muhitini yaratishdan iborat. Innovatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish doirasida auditoriya va auditoriyadan tashqari ta'lim turlarini integratsiyalash jarayoni kelajakdagi kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan, ushbu yondashuv ijtimoiy- ma'naviy muhitni optimallashtirish, ijtimoiy faol fuqarolik va umummadaniy kompetensiyalarning tarkibiy qismlarini shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning turli xil faoliyat turlarini tashkil etishdab iborat.

Xulosa

Innovatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning asosiy maqsadi, talabalarga amaliy ko'nikmalarini berish, ularning qiziqishlari va iste'dodlarini aniqlash orqali kasbiy yo'nalishlarini belgilashdir. Innovatsion metodlar talabalarning o'zaro muloqotini kuchaytiradi va kasbiy qiziqishini oshiradi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini yaratish va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan tajribalar talabalarning kasbiy qiziqishlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar, talabalarning o'z kaasblariga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish, ularni zamonaviy mehnat bozozriga tayyorlash va kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassislar sifatida yetishtirish imkonini beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 22-dekabrdagi Murojatnomasi
2. A.A. AXMEDOV. IJTIMOIY PEDAGOGIKA/ [Matn]: o'quv qo'llanma Amin Axmedov - Buxoro : "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. - 244 b.

3. Begmatov A., Quraev M. Ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalari. T.: OPI to‘plami.
4. Golovanova N.F., Boshlang‘ich sinf o‘quvchisini ijtimoiylashtirish pedagogik muammo sifatida. - SPb .: Maxsus adabiyotlar, 1997. S. 17.
5. Journal of collage teaching
6. Ne’matova Flora Baxtiyorovna “Ijtimoiy pedagogika” “Fan va ta’lim” nashriyoti Buxoro-2022

